

**Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika” fakultetida
“Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida navbatdagi adabiy uchrashuv**

*Alimuxametov Usmonjon Azimjonovich
Xalqaro Nordik Universiteti
Tyutor tarbiyachi
u.alimuxametov@nordicuniversity.org
+998950777050*

BAYONNOMASI

16.12.2024 yil

Nº_____

Toshkent sh.

Qatnashdilar:

Sh. I. Mustafakulov – Xalqaro Nordik universiteti

rektori;

E. Umarov – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
dekani;

Z. Uralbayev – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
dekani muovini;

X. Mamajonova – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti
dekani muovini;

Tyutor tarbiyachi pedagoglar jamoasi;

va **Xalqaro Nordik universitetining talabalari;**

Xalqaro Nordik universitetida adabiyotshunos olim, “Shuhrat” medali, “Xalq ta’limi a’lochisi” unvoni sohibi, taniqli yozuvchi Rahmon Qo’chqor bilan adabiy uchrashuv bo’lib o’tdi. Tadbirda universitetning talaba-yoshlari ishtirok etib, ilm-fan va adabiyot sohasidagi yangiliklar bilan tanishdilar.

Uchrashuvda Rahmon Qo’chqor G’afur G’ulom hayoti va ijodining ko’pchilikka ma’lum bo’lmagan qirralarini talabalarga taqdim etdi. U yozuvchingin yurt va xalq qayg’usida yozilgan, ammo yashagan davr taqozosi bilan nashr etilmay qolgan asarlari haqida ko’plab qimmatli namunalar keltirdi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi buyuk adiblar ijodi va ularning xalqimiz uchun tutgan o’rni haqida boy mulohazalar o’tkazdi.

Adabiy uchrashuv davomida Rahmon Qo’chqor, shuningdek, adabiy va tarixiy evrilishlar, fikrlash va xalq tafakkurining ahamiyati to‘g’risida talabalarga qimmatli tavsiyalar berdi. U milliy madaniyatimiz, ijtimoiy hayotimiz shakllari va axloqiy masalalariga keng nazar solib, yoshlarga o’z vazifalarini halol bajarish, birlashish va millatni hurmat qilish borasida ko’rsatmalar berdi. U bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma’lumotlarni saralab o’qish zarurligiga e’tibor qaratdi.



Adabiyotga bo‘lgan qiziqish va kitob mutolaasi bilan yanada yaqindan tanishish talabalarga katta ilhom berdi. Zero, ilmli yoshlar mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Shuningdek, tadbir davomida Nordik universiteti "Talabalar teatr studiyasi" a’zolari yangi spektakl – “Qadam” sahna asarini taqdim etdilar. Ularning ijrosi talabalarda madaniy va adabiy qadriyatlar haqida chuqur tasavvur qoldirdi.